**BOTANIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.B.39.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**ESANOV HUSNIDDIN QURBONOVICH**

# JANUBI-G‘ARBIY QIZILQUM FLORASI

**03.00.05 – Botanika**

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FAN DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**UO‘K: 581.9(252)(575.15)**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)**

**Contents of dissertation abstract of doctor of science (DSc)**

**Esanov Husniddin Qurbonovich**
Janubi-G‘arbiy Qizilqum florasi…….....3

**Эсанов Хусниддин Курбонович**
Флора Юго-Западного Кызылкума…….…….....…….....27

**Esanov Husniddin Kurbonovich**
Flora of South-West Kyzylkum…….....……...53

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**
Список опубликованных работ
List of published works …….....…….….57

**BOTANIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.B.39.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**ESANOV HUSNIDDIN QURBONOVICH**

# JANUBI-G‘ARBIY QIZILQUM FLORASI

**03.00.05 – Botanika**

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FAN DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Biologiya fanlari bo'yicha fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3.DSc/B173 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (resume)) Ilmiy kengash veb sahifasida (www.botany.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

| | |
|---|---|
| **Ilmiy rahbar:** | **Tojibaev Komiljon Sharobitdinovich**<br>biologiya fanlari doktori, akademik |
| **Rasmiy opponentlar:** | **Xasanov Furqat Orunbayevich**<br>biologiya fanlari doktori, professor |
| | **Mavlanov Xudargan**<br>biologiya fanlari doktori, professor |
| | **Xislat Qudratovich Haydarov**<br>biologiya fanlari doktori, professor |
| **Yetakchi tashkilot:** | **Qarshi davlat universiteti** |

Dissertatsiya himoyasi Botanika instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.B.39.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "12" sentabr kuni soat 14[00] dagi majlisida bo'lib o'tdi. (Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do'rmon yo'li ko'chasi, 32-uy. Botanika instituti majlislar zali. Tel.: (+99871) 262-37-95, faks (+99871) 262-79-38, E-mail: botany@academy.uz).

Dissertatsiya bilan Botanika instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (54-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do'rmon yo'li ko'chasi, 32-uy, Tel.: (+99871) 262-37-95.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "24" avgust kuni tarqatildi.
(2023-yil "24" avgustdagi 5 -raqamli reestr bayonnomasi).

**O.K. Xojimatov**
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash rais o'rinbosari, b.f.d., professor

**U.H. Qodirov**
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD., katta ilmiy xodim

**F.I. Karimov**
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d., yetakchi ilmiy xodim

## KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Dunyo miqyosida biologik xilma-xillikka antropogen omillarning ta’siri ortib borishi hamda global xususiyatga ega bo‘lishi sinantrop hududlarning kengayishiga, invaziv turlarning ko‘payishiga va kamyob turlar arealining qisqarishiga olib kelmoqda. Sinantrop muhitlar va uning atroflarida tabiiy flora tarkibining kambag‘allashayotganligi va adventivlanish jarayoni kuchayganligi flora tarkibini zamonaviy shakllanish qonuniyatlarini o‘rganishni talab etadi. Shunga ko‘ra, o‘simlik qoplamining tur tarkibini aniqlash, trasformatsiya xususiyatlarini o‘rganish, kamyob turlar areallarini aniqlab, ularni saqlab qolishning ilmiy asoslangan chora-tadbirlarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda mintaqaviy floralar tarkibini o‘rganish, turlarning tarqalishini nuqtaviy xaritalash, to‘plangan uzoq muddatli materialni raqamlashtirish, mintaqaviy va global ma’lumotlar bazalarini yaratish orqali zamonaviy floristik tadqiqotlarga tobora ko‘proq e’tibor qaratilmoqda. O‘simliklar xilma-xilligining kamyob va yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan komponentlarini saqlash masalalari dolzarb bo‘lib bormoqda. Antropogen omillarning ortishi bilan bog‘liq holda sinantrop muhitlar florasining tarkibi va ularning shakllanish qonuniyatlarini o‘rganish yangi ilmiy tadqiqot ob’ektlariga aylanib bormoqda.

Shu nuqtai nazardan Markaziy Osiyo ham bundan mustasno emas. Global cho‘llanish jarayonlari, iqtisodiy rivojlanish sur’atlarining o‘sib borishi, tabiiy landshaftlarning o‘zlashtirilishi va boshqa omillar mintaqa florasi tarkibini turli darajada antropogen o‘zgarishlarga olib keladi. Janubi-G‘arbiy Qizilqumning zamonaviy florasi ko‘p asrlar davomida xo‘jalik faoliyati ta’sirida shakllangan va tabiiy hamda o‘zgargan muhit elementlarini o‘zida mujassamlashtirgan. Bu, o‘z navbatida, tabiiy va o‘zlashtirilgan hududlar florasining tarkibidagi o‘zgarishlari va shakllanish qonuniyatlarini tizimli o‘rganish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Keyingi yillarda kamyob, endem turlar va tabiiy landshaftlar areallarining qisqarishi, foydali qazilmalarni qazib olish bilan bog‘liq adventiv turlar sonining ko‘payishi, cho‘l hududlariga urbanizatsiyalashgan hududlarning kengayishi bilan bog‘liq. Shu nuqtai nazardan, mahalliy kamyob va endem turlarning tarqalishini o‘rganish, o‘simliklar xilma-xilligini transformatsiya yo‘llarini hamda adventiv turlarning o‘rnini aniqlash dolzarb vazifaga aylanib bormoqda. Bunga Janubi-G‘arbiy Qizilqum florasi tarkibini zamonaviy inventarizatsiya qilish bo‘yicha olib borilgan yangi tadqiqotlar natijasida erishiladi.

Hozirgi kunda respublikamizda tabiiy fitotsenozlarini barqarorligini ta’minlash, yo‘qolib borayotgan yoki kamyob, endem turlarga antropogen omillar ta’sirini o‘rganish, muhofaza qilish hamda muhofaza qilinadigan hududlarning flora tarkibini inventarizatsiya qilishga katta e’tibor qaratilmoqda. Mazkur yo‘nalishda amalga oshirilgan dasturiy chora-tadbirlar doirasida muayyan yutuqlarga, jumladan, mintaqaviy floralarning kadastrini yaratish, inventarizatsiya qilish, turlarni to‘r tizimli xaritalash, O‘zbekiston florasining yangi nashrlarini yaratish, urbanofloralar dinamikasini aniqlash, kamyob turlarni bioiqlimiy modellashtirish bo‘yicha muhim natijalarga erishildi. Bu borada amalga oshirilgan

dasturiy chora-tadbirlar doirasida mintaqaviy o‘simliklar kadastrlarini yaratish, turlarni to‘r asosida xaritalashni amalga oshirish, O‘zbekiston florasining yangi nashrlarini tayyorlash, yirik urbanizatsiyalashgan hududlar florasi tarkibini o‘rganish, kamyob turlarni bioiqlimiy modellashtirish kabi muhim natijalarga erishildi. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida[1] “Markaziy Osiyoda ekologiya, atrof-muhit ifloslanishining oldini olish va tabiatni muhofaza qilish borasida hamkorlikni yangi bosqichiga olib chiqish” bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda yirik mintaqaviy floralarni zamonaviy inventarizatsiya qilish, yo‘naltirilgan antropogen omillar ta’sirida floraning shakllanish qonuniyatlarini o‘rganish, transformatsiya yo‘llarini aniqlash, kamyob turlarning tarqalish xaritalarini yaratish, o‘simliklar xilma-xilligini muhofaza qilish bo‘yicha samarali chora-tadbirlar ishlab chiqish ushbu tadqiqot ishini zaruratini belgilab beradi hamda yuksak ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasining 2016 yil 21 sentabrdagi 409-son “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 19 dekabrdagi №1034-son “O‘zbekiston Respublikasi Qizil Kitobini tayyorlash, nashr etish va yuritishni tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi, 2019 yil 11 iyundagi 484-son “2019-2028 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi qarorlari va 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi[2].**

Yuksak o‘simliklar florasi tarkibi, tabiiy fitotsenozlar, antropogen omillar bilan bog‘liq bo‘lgan sinantrop muhitlar va adventiv turlarning transformatsiyasini o‘rganishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalarida, jumladan, University of Chinese Academy of Sciences (Xitoy), Korean Plant Diversity Institute (Korea), University of Helsinki (Finlandiya), National Institute of Biological Resources (Korea), Moskva davlat universiteti (Rossiya), V.L. Komarov nomidagi Botanika instituti (Rossiya), Ferdowsi University of Mashhad (Eron), University of Tehran (Eron), Oltoy davlat universiteti (Rossiya), Institute of Biology and Soil Science (Qirg‘iziston), O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika instituti va Buxoro davlat

[1]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

[2]Dissertatsiyaning mavzusi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar sharhi https://www.researchgate.net, https://www.scopus.com, https://www.dissercat.com, https://www.library.ru, http://www.webofscience.com va boshqa manbalar asosida ishlab chiqilgan.

universitetida (O‘zbekiston) olib borilmoqda.

Dunyoda olib borilayotgan tadqiqotlar natijasida yuksak o‘simliklarning taksonomik xilma-xilligini aniqlash, jumladan, endemik, avtoxton va adventiv fraksiyalar bo‘yicha qator natijalarga erishildi: jahon florasining yuksak o‘simliklarining tarkibi aniqlandi, ularning yirik fitogeografik hududlar va mamlakatlar bo‘yicha tarqalishi, shuningdek, tabiiy sharoit va inson faoliyati natijasida degradatsiyaga uchragan hududlar florasining kompleks tarkibi aniqlangan (Ferdowsi University of Mashhad, Eron), muhofaza etiladigan hududlarning floristik tarkibini kompleks tadqiq qilish, turlar genezisi, mahalliy va adventiv turlar tarkibi aniqlangan, mahalliy hamda tarqalishi keng diapozonli turlar o‘rganilgan (University of Tehran, Eron), antropogen o‘zlashtirilgan va tabiiy landshaftlarda adventiv turlarning transformatsiyasi, iqlimlashish darajasi, mamlakat iqtisodiyotiga keltirayotgan zarari baholangan (Moskva davlat universiteti, Rossiya), mahalliy floralar tarkibiga kirib kelayotgan geografik tarqalishi keng bo‘lgan (adventiv) turlarning fitogeografiyasi va o‘simlik jamoalari bilan o‘zaro munosabati tadqiq qilingan (Korean Plant Diversity Institute, Korea), tabiiy va antropogen muhitlarda invaziv turlar tarqalishi va populyatsiyalari baholangan (University of Helsinki, Finlandiya; Institute of Biology and Soil Science, Qirg‘iziston).

Dunyoda mahalliy floralarni tabiiy va o‘zgargan muhitlarda o‘rganish bo‘yicha qator, jumladan quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: mahalliy floralarning zamonaviy ro‘yxatini tuzishda zamonaviy uslublardan foydalanish, floralarning to‘r tizimli GAT xaritalarini yaratish, kamyob va endem turlarning potensial areallarini bioiqlimiy modellashtirish, muhofaza qilinadigan hududlarning florasini inventarizatsiya qilish va o‘simlik qoplami holatini baholash, transformatsiya jarayonlarini o‘rganish, flora uchun begona bo‘lgan adventiv turlarni kirib kelish yo‘llari va iqlimlashish darajalarini aniqlash.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Milliy floralar tarkibini o‘rganish, zamonaviy konspektini tuzish, muhofaza etiladigan hududlar flora tarkibini inventarizatsiya qilish va kamyob, endem turlarning tarqalishini modellashtirish Z.Barina et al. (2018), M. Dinarvand, Z. Jamzad (2020), F. Memariani et al. (2016a, 2016b), W.Lyu (2022), A.K. Osmana, M.A. Abdein (2019) va boshqa ishlarda keltirilgan. Sinantrop va adventiv floraning shakllanish xususiyatlari I.Ciortan, G.Negrean (2012), A.V. Verkhozina et. al. (2022), A.S. Tretyakova, P.V. Kulikov (2014), L.V. Xorun (1998), Ye.A. Borisova (2008), V.M. Starchenko (2008), A.A. Notov (2009), S.R. Mayorova va boshqalar (2012), O.M. Maslova va boshqalar (2019), Ye.A. Shuyskaya (2009) va boshqalar tomonidan o‘rganilgan. Yirik tabiiy hududlar floralarini tadqiq qilish (Анализ флоры Каракалпакии), kamyob endem turlarning kadastrini yaratish, tarqalish areallarini to‘r tizimli xaritalash (Кадастр флоры Узбекистана: Бухарская область), yangi taksonlarni aniqlash (Флора юго-западного Тянь-Шаня), muhofaza qilinadigan hududlar florasining inventarizatsiyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar K.Sh.Tojibaev (2010), K.Sh.Tojibaev va boshqalar (2018, 2019, 2020), B.Sherbaev (1991),

U.Turemuradov (1978), S.Yerejepov (1978), A.R. Batoshov (2016), L.S. Krasovskaya I.G. Levichev (1986), A. Ibragimov (2010), N.Yu. Beshko (2000), A.S.Esanqulov (2012), O.Turginov (2017), U.H. Qodirov (2020) ishlarda qayd etilgan.

Janubi-G‘arbiy Qizilqum florasi haqidagi qimmatli ma’lumotlar X.X. Guzairov (1968), I.I. Granitov (1964, 1967), Q.Z. Zakirov (1955-1961), J.K. Saidov va boshqalar (1975) ning ilmiy asarlarida keltirilgan. Biroq ushbu ma’lumotlar Janubi-G‘arbiy Qizilqumning to‘liq floristik tarkibini yoritib berolmaydi. Shu bilan birga mazkur hududdagi oxirgi fundamental tadqiqotlar XX asrning 60-70-yillarda olib borilgan. Shu davrdan hozirgi kunga qadar tabiiy landshaftlarda antropogen bosimning ortishi, chorva mollarining tartibsiz boqilishi, aholining urbanlashgan hududlarining kengayishi, geologik qidiruv ishlari ko‘lamining ortishi kabi omillar tadqiqot hududi florasini o‘rganish bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlar o‘tkazishni talab etadi. Shu ko‘ra flora tarkibini to‘liq inventarizatsiya qilish, transformatsion o‘zgarishlarni aniqlash, kamyob va endem turlarga salbiy omillarning ta’sirini baholash, o‘simlik resurslarini barqaror saqlash bo‘yicha ilmiy asoslangan chora-tadbirlarni ishlab chiqish yuksak ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Botanika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining PZ-20170919165 «Navoiy va Buxoro viloyatlarining kamyob va yo‘qolib borayotgan yuksak o‘simliklari kadastri» (2018–2020) va MRB-2021-529 «Turli tabiiy-iqlim va antropogen sharoitlarda urbanofloraning shakllanishi xususiyatlari (Belorus va O‘zbekiston misolida)» (2022–2023) mavzularidagi amaliy va fundamental loyihalari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Janubi-g‘arbiy Qizilqum yuksak o‘simliklar florasining konspektini tuzish, floraning kompleks tahlil qilish va aborigen hamda adventiv fraksiyalarning qiyosiy tavsifini amalga oshirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

dala tadqiqotlari, ilmiy manbalar va tarixiy gerbariy fondi ma’lumotlarini umumlashtirish;

Janubi-G‘arbiy Qizilqum florasining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash va zamonaviy konspektini tuzish;

antropogen bosim ostida o‘zgargan va tabiiy muhitlarda adventiv turlarning tarqalishi hamda transformatsiya yo‘llarini aniqlash;

Janubi-G‘arbiy Qizilqum florasining aborigen va adventiv fraksiyalarini qiyosiy tahlil qilish;

muhofaza qilinadigan hududlar Qizilqum davlat qo‘riqxonasi va Buxoro ixtisoslashgan Jayron pitomnigi florasini inventarizatsiya qilish;

Janubi-G‘arbiy Qizilqumning botanik-geografik rayonlarida turlarning tarqalish qonuniyatlarini aniqlash;

kamyob, yo‘qolib borayotgan va endem turlarning tarqalishining yuqori konsentratsiyali hududlarini aniqlash, davlat kadastrini tuzish hamda bioiqlimiy modellashtirishni amalga oshirish;

**Tadqiqotning ob’ekti** Janubi-G‘arbiy Qizilqumning yuksak o‘simlik turlari hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti** – Janubi-G‘arbiy Qizilqumning yuksak o‘simliklar florasining konspekti, shuningdek floraning taksonomik, botanika-geografik va fitotsenologik tahlillari hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada marshrutli, yarim statsionar, taksonomik, fitogeografik, biomorfologik, qiyosiy va GAT xaritalashning zamonaviy usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Janubi-G‘arbiy Qizilqum florasi zamonaviy tarkibining 68 oila, 346 turkumga mansub 795 turdan tashkil topgan konspekti tuzilgan va o‘ziga xos xususiyatlari aniqlangan;

boshlang‘ich ma’lumotlar bilan qiyoslaganda olib borilgan izlanishlar tadqiqot hududi florasini 215 dan ortiq turlar bilan boyitilishiga xizmat qildi. Ulardan 7 tur O‘zbekiston florasi uchun ilk bor keltirilmoqda;

O‘zbekistonda floristik tadqiqotlar amaliyotida birinchi marta o‘rganilayotgan hudud florasi aborigen va adventiv fraksiyalarga bo‘linib, ularning qiyosiy tahlili amalga oshirilgan;

floraning transformatsiya yo‘llari o‘rganilgan va antropogen omillar ta'sirida adventiv turlar sonining ko‘payishi asoslangan, adventiv turlarning tarqalish xaritalari tuzilgan;

tabiiy hududlarda geologik qazilma ishlarining ortib borishi va chorva mollarining ko‘p boqilishi ta’siri ostida kamyob va yo‘qolib borayotgan turlarning davlat kadastri yaratilgan;

tadqiqot hududida muhofaza qilinadigan Qizilqum davlat qo‘riqxonasi va Buxoro ixtisoslashgan Jayron pitomnigi florasining zamonaviy konspekti tuzilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Floraning 795 turdan tashkil topgan zamonaviy konspekti va 1500 dan ortiq gerbariy namunalarining geobog‘langan yirik ma’lumotlar massivi, kelgusida doimiy monitoring olib borish, davlat kadastrini yuritish, zamonaviy uslublarga asoslangan O‘zbekiston florasining to‘r tizimli xaritasini yaratish va «O‘zbekiston florasi» ning navbatdagi nashrlarini tayyorlash uchun taqdim etildi;

Buxoro viloyati davlat kadastrini tuzishda tadqiqot hududi florasining konspekti hamda o‘rganilayotgan hududning kamyob va yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan turlari to‘g‘risidagi yangi ma’lumotlardan foydalanilgan;

muallif tomonidan yig‘ilgan gerbariy namunalarining boy kolleksiyasi O‘zbekiston Milliy gerbariy fondiga topshirilgan;

geografik tarqalishi keng bo‘lgan turlarning yaratilgan GAT xaritalari keyingi tadqiqotlarda floraning adventiv fraksiyasining monitoringi uchun raqamli manba bo‘lib xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** floristikaning klassik va zamonaviy usullarini uyg'unlashganligi va olingan natijalarni yetakchi ilmiy nashrlarda e'lon qilganligi, asosiy tadqiqot natijalarini davlat amaliy va fundamental loyihalarga joriy qilinganligi, vakolatli davlat organlari tomonidan dissertatsiya ishining

amaliy natijalarini tasdiqlanganligi, turli taksonomik guruhlar bo‘yicha birlamchi natijalarni yetakchi mutaxassislari bilan muhokama qilinganligi, O‘zbekiston florasi bo‘yicha axborot-tahlil tizimiga ma’lumotlar bazasini joriy etilgaligi va to‘plangan gerbariy namunalarini Markaziy Osiyo florasi bo‘yicha jahonda yetakchi kolleksiya bo‘lgan O‘zbekiston Milliy gerbariy (TASH) fondida saqlanayotgaligi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Janubi-G‘arbiy Qizilqum florasini kompleks o‘rganilganligi, flora konspektini tuzilganligi, har tomonlama tahlillarni amalga oshirilganligi; aborigen va adventiv fraksiyalarning ajratilganligi va ularning qiyosiy tahlil qilinganligi; floraning ilgari adabiyotlarda qayd etilmagan kamyob va endem turlarining mahalliy tarqalishining batafsil tavsiflanganligi; O‘zbekiston florasining yangi turlar bilan to‘ldirilganligi, shuningdek, floraning asosiy o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Buxoro viloyati davlat kadastrini tayyorlashda qo‘llanilganligi, kamyob, alohida muhofazaga muhtoj va keng arealli adventiv turlarning GAT xaritalarini yaratilgaligi, kamyob turlarning bioiqlimiy modellashtirilganligi, O‘zbekiston florasining yangi turlar bilan to‘ldirilganligi, Qizilqum davlat qo‘riqxonasi va Buxoro ixtisoslashgan Jayron pitomnigi floralarining inventarizatsiya qilingaligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Janubi-G‘arbiy Qizilqum florasini o‘rganish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

68 oila, 346 turkumga mansub 795 tur yuksak o‘simliklar konspekti, em-xashak (384 tur), dorivor (227), zaharli o‘simliklarning (80) yangi ro‘yxati, shuningdek, 23 tur kamyob va endem o‘simliklar hamda ular tarqalishining GAT xaritalari O‘zdaverloyiha davlat ilmiy-loyiha instituti Buxoro viloyat bo‘linmasining amaliy faoliyatiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2023 yil 23 iyundagi №06/26-05/3093-son ma’lumotnomasi). Taqdim etilgan natijalar cho‘l o‘simliklari turlarining ilmiy-amaliy monitoringini tashkil etish va Buxoro viloyatining bir qator yem-xashak, dorivor, zaharli, shuningdek, kamyob va endemik o‘simlik turlarining yangi tarqalish joylarini aniqlashga xizmat qilgan;

chetdan kirib kelgan invaziv o‘simliklarning 228 turdan tashkil topgan ma’lumotlari Bioxilma-xillik to‘g‘risidagi global ma’lumotlar tizimiga (www.gbif.org, GBIF) kiritilgan (Global bioxilma-xillik ma’lumotlar bazasining 2023-yil 31-martdagi guvohnomasi). Taqdim etilgan natijalar asosida O‘zbekistonda birinchi marta invaziv turlar ro‘yxati tuzildi va keyinchalik GBIF portalida e’lon qilindi;

muallif tomonidan yig‘ilgan 62 oila, 584 turga mansub 5000 dan ortiq gerbariy namunalari O‘zbekiston Milliy gerbariysi (TASH) fondiga topshirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2023 yil 06 apreldagi 4/1255-716-son ma’lumotnomasi). Ushbu materiallar Qizilqum turlarining so‘nggi 30 yilda tadqiqot hududidan yig‘ilgan eng boy kolleksiyasi bo‘lib, noyob ilmiy fondni

boyitish, shuningdek, O‘zbekiston florasi haqidagi axborot-tahlil tizimini kengaytirish imkonini bergan;

Botanika institutining Davlat dasturi doirasida amalga oshirilayotgan O‘zbekiston florasining yangi jildlarini tayyorlash bo‘yicha fundamental loyihaga tadqiqot hududidan to‘plangan Plumbaginaceae, Gentianaceae, Boraginaceae, Caprifoliaceae va Apiaceae oilalar turlari bo‘yicha yangi ma’lumotlar, shuningdek, o‘simlik turlarining tarqalishiga oid 1500 dan ortiq geobog‘langan ma’lumotlar joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2023 yil 06 apreldagi 4/1255-716-son ma’lumotnomasi). Natijalar O‘zbekiston florasining (2016-2023) dastlabki besh jildini yangi ma’lumotlar bilan boyitishga imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot ishining natijalari 16 ta, jumladan 6 ta xalqaro, 10 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 40 ta ilmiy ish nashr etilgan, shundan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 18 ta ilmiy maqola, jumladan 10 ta respublika va 8 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, oltita bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 195 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustivor yo‘nalishlarga muvofiqligi, tadqiqot ishi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob’ekti va predmeti, ilmiy yangiligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, natijalarning joriy qilinishi, chop etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Tadqiqot hududida olib borilgan botanik tadqiqotlar sharhi. Tadqiqot ob’ekti va metodlari»** nomli birinchi bobida Janubi-G‘arbiy Qizilqumda olib borilgan botanik tadqiqotlar sharhi hamda tadqiqot ob’ekti va metodlari to‘g‘risida ma’lumotlar bayon etilgan.

Bobning birinchi bo‘limi Janubi-G‘arbiy Qizilqumning o‘simliklar xilma-xilligini o‘rganish bo‘yicha olib borilgan botanik izlanishlar tahliliga bag‘ishlangan. Qadimgi davrlardan boshlab o‘simliklarni o‘rganish bo‘yicha olib borilgan botanik izlanishlar, uch davrga (1) XX asrgacha (2) XX asr va (3) XXI asr boshlaridan hozirgacha, bo‘lib o‘rganildi. Birinchi davr birlamchi ma’lumotlarni jamlanganligi bilan xarakterlanadi. Shuning uchun bu davr dastlabki ma’lumotlarni jamlash davri deb nomlandi. Ikkinchi davrda tadqiqot hududida yirik ekspeditsiyalar uyushtirilib juda ko‘p ilmiy ma’lumotlar to‘plangan. Uning natijasi

sifatida yirik fundamental asarlar nashr qilingan. Tadqiqot natijalari asosida bu davr kompleks ekspeditsiyalar va fundamental asarlar yaratilish davri deb nomlandi. Uchinchi davrda olib borilgan tadqiqotlar ko‘proq tabiiy floralarga antropogen omillar ta’siri va undagi o‘zgarishlarni baholashga asoslangan. Shundan kelib chiqib ushbu davr sinantrop floraning shakllanish davri deb nomlandi. Shuningdek, dissertatsiyada har bir davrning o‘ziga xos xususiyatlari ya’ni, o‘simliklarning o‘rganilishi bo‘yicha tadqiqot natijalari, yaratilgan ilmiy asarlar va ularning ahamiyati keng yoritib berilgan.

Bobning ikkinchi bo‘limi tadqiqot hududida olib borilgan izlanishlar va yig‘ilgan gerbariy namunalarini kompleks tahlil qilishda foydalanilgan klassik va zamonaviy metodlarga bag‘ishlangan.

Dissertatsiyaning «**Janubi-G‘arbiy Qizilqum florasining tahlili»** deb nomlangan ikkinchi bobida floraning keng ko‘lamli tahlil natijalari bayon qilingan.

Birinchi bo‘lim flora konspektining tuzilishiga bag‘ishlangan. Konspekt 68 oila, 346 turkumga mansub 795 aborigen va adventiv turlarni birlashtiradi. Konspektda sporali yuksak va qarag‘aytoifa o‘simliklar Christenhusz & al. (2011a, 2011b) asosida keltirilgan. Magnoliyatoifa oilalar ketma-ketligi APG IV (2016) tizimiga muvofiq joylashtirilgan. Oila tarkibidagi turkum va turlar alfavit tartibida qayd etilgan. Konspekt tadqiqot hududida o‘suvchi, gerbariy namunalari (tarixiy va muallif gerbariylari) va ishonchli ilmiy manbalar bilan tasdiqlangan turlarni o‘z ichiga oladi. Har bir tur uchun ilmiy, ruscha va o‘zbekcha binar nomlari, nashr etilgan dastlabki manbasi, hayotiy shakli, geografiyasi, ekotoplari, ma’muriy hududlari, kollektorlar, yig‘ilgan sanasi, xo‘jalikdagi ahamiyati va kamyoblik darajasi qayd etilgan. Adventiv turlar * bilan belgilangan.

Ikkinchi bo‘lim Janubi-G‘arbiy Qizilqum florasi uchun keltirilayotgan yangi topilmalarga bag‘ishlanadi. Floristik tadqiqotlarning yuqori darajasi ko‘pincha flora tarkibiga yangi taksonlarning qo‘shilishi bilan belgilanadi. Dala tadqiqotlari va mavjud gerbariy namunalarini (TASH, MW) tanqidiy o‘rganish natijalariga ko‘ra O‘zbekiston florasi uchun birinchi marta yettita yangi tur (*Chenopodium ficifolium* Sm., *Juncus minutulus* (Albert & Jahand.) Prain, *Zygophyllum borissovae* Beier & Thulin, *Strigosella hyrcanica* (Freyn et Sint.) Botsch., *Petrosimonia brachiata* (Pall.) Bunge, *Petrosimonia oppositifolia* (Pall.) Litv., *Scandix australis* subsp. *grandiflora* (L.) Thell.) keltirildi. Shuningdek, Qizilqum florasi uchun 5 tur (*Lathyrus aphaca* L., *Trifolium campestre* Schreb., *Veronica hederifolia* L., *Reseda lutea* L., *Astragalus schmalhausenii* Bunge) va Janubi-G‘arbiy Qizilqum florasi uchun 9 tur (*Geranium pusillum* L., *Achillea millefolium* L., *Artemisia vulgaris* L., *A. absinthium* L., *Cirsium vulgare* (Savi) Ten., *Anchusa azurea* Mill., *Gamanthus commixtus* Bunge, *Myosotis micrantha* Pall. ex Lehm., *Sisymbrium subspinescens* Bunge) yangi taksonlar qayd qilindi. Shunisi e’tiborga loyiqki, yangi topilmalarning bir qismi Eron-Turonning aborigen cho‘l florasiga tegishli bo‘lib, ular tadqiqot hududining yaxshi o‘rganilmaganligini ko‘rsatadi. Adventiv turlarning ko‘pligi hozirgi vaqtda sodir bo‘layotgan jadal invaziyadan dalolat beradi.

Uchinchi bo‘limda floraning taksonomik tahlili yoritilgan. Tadqiqot natijalari o‘rganilayotgan hududning taksonomik xilma-xilligi haqidagi zamonaviy tushunchalarni sezilarli darajada kengaytiradi va adventiv turlar xilma-xilligi to‘g‘risidagi mavjud fikrlarni o‘zgartiradi. Janubi-G‘arbiy Qizilqum florasining taksonomik tahlili uning umumiy va o‘ziga xos xususiyatlarini namoyon qilishida muhim vosita sanaladi. Taksonomik tahlil natijasida 68 oila, 346 turkumga mansub 795 turni aniqladik. Bu yerda O‘zbekiston florasining yovvoyi holda o‘sadigan turlarining 18% ga yaqini to‘plangan (4384 tur hisobidan, Sennikov va boshqalar, 2016), bu taxminan Janubi-Sharqiy Qizilqum qoldiq tog‘lari (Батошов, 2016) yoki Surxon qo‘riqxonasi (Ибрагимов, 2008) florasi bilan bir xil. Turlarning asosiy qismi, ya’ni 790 turi yoki 99.37% gulli o‘simliklardir. Bu, o‘rganilayotgan hududning sporali (0.13%) va ochiqurug‘lilar (0.50%) uchun noqulay qurg ‘oqchil sharoit ekanligini ko‘rsatadi. Har bir oilaga o‘rtacha 11.69 va har bir turkumga 2.29 tur to‘g‘ri keldi. Yirik taksonomik birliklarning bunday nisbati Janubi-G‘arbiy Qizilqumning qurg‘oqchilik iqlim sharoitlarini aks ettiradi va bu holat Turon provinsiyasi floralariga xos xususiyat hisoblanadi (Туремурадов, 1978; Сарибаев, 1994).

Turlar soni bo‘yicha yetakchi oilalarning tahlili tadqiq etilayotgan hudud florasining mahalliy va mintaqaviy xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi (Иванова, 2013). Bu boradagi tadqiqotlarning aksariyat qismida turlar soni bo‘yicha yetakchilik qiladigan dastlabki o‘nta oila ajratib olinadi. Biroq, bu tanlov sub’ektiv bo‘lib, o‘rganilayotgan floraning mahalliy xususiyatlariga ko‘ra 10 tadan ko‘proq oilalar ham olinishi mumkin (Иванова, 2013). Bu boradagi tahlillar uchun Janubi-G‘arbiy Qizilqum florasidagi yetakchi 10 oilani tanlandi. Tahlil natijalari 1-jadvalda keltirilgan. Ularning ketma-ketligi floristik tarkibning tarixiy shakllanishiga hissa qo‘shadigan tabiiy-iqlim sharoitlarini, shuningdek, atrof-muhitga antropogen ta’sir bilan bog‘liq zamonaviy xususiyatlarni amalda aks ettiradi. Birinchi uchta oilaning ustunligi (Amaranthaceae, Asteraceae, Poaceae) va umuman spektrdagi Fabaceae ning to‘rtinchi pozitsiyasi Eron-Turonning turli qurg‘oqchil hududlari uchun xosdir (Шербаев, 1988; Сарибаев, 1994; Батошов, 2016). Amaranthaceae ustunligi *Climacoptera* (9), *Caroxylon* (8), *Suaeda* (8), *Atriplex* (7), *Halimocnemis* (7), *Amaranthus* (6), *Bassia* (6), *Salsola* (5) va boshqa turkumlar hisobidan amalga oshadi. Oila tarkibi asosan Eron-Turon elementlaridan tashkil topgan, shu bilan birga, invaziv turlar masalan, *Amaranthus* turkumi turlari ustunlik qiladi. Keyingi o‘rinni Asteraceae oilasi 104 tur (13,08%) bilan egallaydi. Butun Golarktikada yetakchi oila bo‘lgan Asteraceae (Taxtadjyan, 1997; Xoxryakov, 2000) tadqiqot hududida antropogen sharoitga ko‘proq moslashgan ko‘p sonli turkumlar bilan e’tiborni tortadi (1-jadval).

Poaceae Eron-Turon hududida bir pallalilar soni bo‘yicha etakchi hisoblanadi va etakchi oilalar spektrining birinchi uchligiga kiritilgan (Xoxryakov, 2000). Oila vakillarining 55% dan ortig‘i begona o‘t sifatida ekinlar orasida va ruderal yerlarda uchraydi. 68 tur (8,55%) bilan ikkinchi uchlikni boshqaradigan Fabaceae oilasi bir tomondan floraning tabiiy xususiyatlarini (*Astragalus* turlari hisobidan) belgilasa, boshqa tomondan antropogen hududlarda turlarga boyligi bilan ifodalanadi.

Brassicaceae va Boraginaceae oilalarining yuqori mavqei ham antropogen ta’sir darajasini ko‘rsatadi, bu esa keng arealli bir yillik begona o‘tlarning keng tarqalishiga yordam beradi. Mazkur oilalar, ayniqsa birinchisi, ko‘plab urbanizatsiyalashgan hududlarning floralariga xosdir (Сафонов, Бабкин, 2013). Boshqa tomondan, shuni ta’kidlash kerakki, invaziv turlarning ko‘plab yangi topilmalari Asteraceae (*Eclipta prostrata, Erigeron bonariensis, Symphyotrichum graminifolium*), Poaceae (*Sorghum halepense, Lolium perenne*), Apiaceae (*Scandix australis* subsp. grandiflora) va boshqa yuqori xilma-xillikka ega bo‘lgan oilalarda qayd etildi (1-jadval). Nam floraga xos bo‘lgan Ranunculaceae oilasining yoki bu spektrga kirmaydigan Lamiaceae (11-o‘rin) yoki Cyperaceae (12-o‘rin) oilalarining nisbatan past joylashuvi Janubi-G‘arbiy Qizilqumning xarakterli sharoitlari bilan bog‘liq.

**1-jadval**

Janubi-G‘arbiy Qizilqumning yetakchi oilalar spektri

| Oilalar | Turlar soni | % | Oilalar | Turkumlar soni | % |
|---|---|---|---|---|---|
| Amaranthaceae | 109 | 13.71 | Asteraceae | 47 | 13.58 |
| Asteraceae | 104 | 13.08 | Poaceae | 39 | 11.27 |
| Poaceae | 74 | 9.31 | Amaranthaceae | 36 | 10.41 |
| Fabaceae | 68 | 8.55 | Brassicaceae | 33 | 9.54 |
| Brassicaceae | 66 | 8.30 | Fabaceae | 18 | 5.20 |
| Boraginaceae | 34 | 4.28 | Boraginaceae | 17 | 4.91 |
| Polygonaceae | 28 | 3.52 | Apiaceae | 16 | 4.63 |
| Apiaceae | 26 | 3.27 | Lamiaceae | 12 | 3.47 |
| Caryophyllaceae | 21 | 2.64 | Caryophyllaceae | 11 | 3.18 |
| Ranunculaceae | 20 | 2.52 | Ranunculaceae | 9 | 2.60 |
| 7 oilada | 10–19 | | 3 oilada | 5–6 | |
| 13 oilada | 5–9 | | 22 oilada | 2–4 | |
| 17 oilada | 2–4 | | 33 oilada | 1 | |
| 21 oilada | 1 | | | | |
| 10 oila hisobidan | 550 | 69,18 | 10 oila hisobidan | 238 | 68,79 |

Mazkur dissertatsiya ishining yangilik darajasi etakchi oilalar spektrini I.I.Granitov (1964) natijalari bilan qiyosiy tahlil qilish orqali aniq ko‘rsatilgan. Yarim asrdan ortiq vaqt mobaynida flora tarkibida aniqlangan o‘zgarishlar 2-jadvalda keltirilgan. Unda nafaqat turlar sonining ortib borgani, balki yetakchi oilalar ketma-ketligidagi o‘zgarishlarni ko‘rish mumkin. Birinchi navbatda Asteraceae oilasi ko‘zga tashlanadi. Unda flora tarkibiga 40 tur kiritilgan. Bir tomondan, bu oilaning Golarktika florasidagi etakchi mavqei (Taxtadjyan, 1978), boshqa tomondan so‘nggi yarim asrda Janubi-G‘arbiy Qizilqumdagi aholi manzillarining kengayishi bilan izohlanadi. Yangi o‘zlashtirilgan hududlar

florasidagi adventiv fraksiya vakillarining asosiy qismi aynan Asteraceae oilasiga mansub (Esanov, 2017; Esanov et al., 2018).

**2-jadval**

Janubi-G‘arbiy Qizilqum florasi yetakchi oilalarining zamonaviy va tarixiy spektrini taqqoslash

| Oilalar | Esanov, 2023 | | Oilalar | Granitov, 1964 | |
|---|---|---|---|---|---|
| | Turlar soni | % | | Turlar soni | **%** |
| Amaranthaceae | 109 | 13.71 | Amaranthaceae | 92 | 15.69 |
| Asteraceae | 104 | 13.08 | Asteraceae | 64 | 11.03 |
| Poaceae | 74 | 9.31 | Poaceae | 57 | 9.83 |
| Fabaceae | 68 | 8.55 | Brassicaceae | 46 | 7.93 |
| Brassicaceae | 66 | 8.30 | Fabaceae | 45 | 7.76 |
| Boraginaceae | 34 | 4.28 | Liliaceae | 23 | 3.96 |
| Polygonaceae | 28 | 3.52 | Boraginaceae | 22 | 3.79 |
| Apiaceae | 26 | 3.27 | Polygonaceae | 20 | 3.45 |
| Caryophyllaceae | 21 | 2.64 | Caryophyllaceae | 16 | 2.76 |
| Ranunculaceae | 20 | 2.52 | Euphorbiaceae | 14 | 2.41 |
| | 550 | 69.18 | | 399 | 68.78 |

Muhim farqni Amaranthaceae oilasi misolida ham ko‘rish mumkin. Qiyoslanayotgan tarkiblar 17 turga farqlanadi. Bunda *Amaranthus* turkumi markaziy o‘rinni egallaydi. I.I. Granitov (1964) turkumdan 1 tur keltirilgan. Bizning natijalarimiz kamida 6 turning mavjudligini ko‘rsatadi. Bu yerda ham turlar boyligining ortishiga adventiv turlar hisobiga erishiladi (Esanov, 2017). Agar boshqa yetakchi oilalar misolida qarasak, Poaceae-17, Fabaceae-23, Brassicaceae-20, Boraginaceae-12, Polygonaceae-8, Caryophyllaceae-5 tur qo‘shilganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu o‘zgarishlar, bir tomondan, o‘simliklar xilma-xilligi yuqori antropogen bosim ostida bo‘lib, asosan, tasodifiy turlar hisobiga boyib borayotganligini ko‘rsatsa, boshqa tomondan, bu holat Janubi-G‘arbiy Qizilqum florasining o‘rganilishi yetarli darajada emasligini yaqqol ko‘rsatib turibdi.

L.I. Malishev (1972) fikricha, yetakchi oilalar spektri floraning tashqi fizionomik xususiyatlarini belgilab bersa, turkumlar spektri esa uning ichki tuzilishlarini aks ettiradi va o‘rganilayotgan floraning individual xususiyatlarini batafsilroq ochib berish imkonini beradi (Ivanova va boshqalar, 2019). Janubi-G‘arbiy Qizilqum florasining yetakchi 18 turkum ro‘yxati 186 turni birlashtirib, hudud florasining 23.40% tashkil qildi (3-jadval).

Dastlabki uchta turkumning ketma-ketligi ko‘pgina cho‘l Turon floralariga (Turemuratov, 1978) mos keladi va o‘rganilayotgan hudud florasining tabiiy xususiyatlarini aks ettiradi.

Yetakchi turkumlar spektrini 32 tur (4,03%) bilan *Astragalus* boshqaradi. Bu cho‘l florasi uchun yuqori ko‘rsatkich, chunki turlarning xilma-xilligi bilan ajralib turadigan Tog‘li O‘rta Osiyo provinsiyasining ko‘pgina floralarida bu turkumning ulushi taxminan 3,5–5% ni tashkil qiladi (Tojibayev, 2010). Turkum yetakchiligi

Turon (*A. chiwensis, A. petunnikovii*), O‘rta Osiyo (*A. filicaulis, A. arpilobus*), Eron (*A. ammophilus, A. bakalinsis*) turlari (jami 23 tur) hisobiga amalga oshadi. Avtoxton elementlarning ustunligi har biri 15 turdan iborat keyingi *Calligonum* va *Artemisia* turkumlarida ham kuzatildi. Ularning aksariyati keng tarqalgan Turon elementlariga mansub. Xuddi shunday holat *Cousinia* (5-o‘rin) turkumida ham kuzatilib, 11 turdan 8 tur tarqalganligi qayd etildi. Florada antropofil *Lepidium* va *Bromus* turkumlarining ustunligi antropogen transformatsiyalashgan hududlardagi geografik tarqalishi keng bo‘lgan turlar bilan belgilanadi.

**3-jadval**

Janubi-G‘arbiy Qizilqum florasining yetakchi turkumlar spektri

| Turkumlar | Turlar soni | % | Turkumlar | Turlar soni | % |
|---|---|---|---|---|---|
| *Astragalus* | 32 | 4.03 | *Caroxylon* | 8 | 1.00 |
| *Calligonum* | 15 | 1.89 | *Suaeda* | 8 | 1.00 |
| *Artemisia* | 15 | 1.89 | *Convolvulus* | 8 | 1.00 |
| *Lepidium* | 11 | 1.39 | *Euphorbia* | 8 | 1.00 |
| *Cousinia* | 11 | 1.39 | *Ranunculus* | 7 | 0.88 |
| *Bromus* | 9 | 1.13 | *Atriplex* | 7 | 0.88 |
| *Tamarix* | 9 | 1.13 | *Halimocnemis* | 7 | 0.88 |
| *Climacoptera* | 9 | 1.13 | *Veronica* | 7 | 0.88 |
| *Strigosella* | 8 | 1.00 | *Centaurea* | 7 | 0.88 |
| Jami | | | | 186 | 23.40 |

Umuman olganda, yetakchi turkumlar tarkibining geografik tarqalishida Eron-Turon guruhi vakillari 102 turni va undan keyin geografik tarqalishi keng bo‘lgan guruh vakillari 43 turni tashkil qildi. Bu esa yetakchi turkumlar misolida floradagi avtoxton elementlarning ustunligini ko‘rsatsada, bir paytning o‘zida geografik tarqalishi keng bo‘lgan turlar o‘rnini ortib borayotganligini ko‘rsatadi. Taksonomik tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘rganilayotgan hudud florasi O‘rta Osiyoning janubiy cho‘llari florasini aks ettiradi. Yetakchi oila va turkumlar spektri Turon provinsiyasi florasiga muvofiq kelishini hamda migratsiya elementlarining o‘rni ortib borayotganligini yaqqol namoyon etdi.

To‘rtinchi bo‘lim geografik tahliliga bag‘ishlanadi. Ushbu tahlilning asosiy maqsadi – qaysi geografik elementlar floraning asosini tashkil qiladi va qanday elementlar hisobiga turlar xilma-xilligi oshadi? An’anaviy fitogeografik tahlillarga amal qilgan holda (Красовская, Левичев, 1986; Тожибаев, 2010; Батошов, 2016 va boshq.), mazkur ishda areal sinflarining ierarxik jadvalini tuzdik (4-jadval). Janubi-G‘arbiy Qizilqum florasidagi aniqlangan turlarning yirik fitoxorionlar bo‘yicha (Taxtadjyan, 1978) tarqalishini o‘rganish natijasida 44 areal tiplari aniqlandi. Ular 6 ta areal sinflariga birlashtirildi (4-jadval).


**4-jadval.**

Janubi-G‘arbiy Qizilqum florasi turlarining areal sinflari bo‘yicha taqsimlanishi

| № | Areal sinflari | Oila | Turkum | Turlar | % |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Turon sinfi | 52 | 100 | 141 | 17.73 |
| 2 | Eron-O‘rta Osiyo sinfi | 83 | 175 | 237 | 29.82 |
| 3 | Qadimiyo‘rtayerdengizi sinfi | 81 | 146 | 160 | 20.12 |
| 4 | Palearktika sinfi | 98 | 145 | 167 | 21.01 |
| 5 | Golarktika sinfi | 20 | 28 | 38 | 4.78 |
| 6 | Plyuregional sinfi | 21 | 38 | 52 | 6.54 |
| **Jami** | | | | **795** | **100** |

Janubi-G‘arbiy Qizilqum florasining areal sinflari bo‘yicha tahlil natijalari Eron-O‘rta Osiyo sinfining (237/29.82%) ustunligini ko‘rsatdi. Qadimiyo‘rtayerdengizi sinfining yetakchi o‘rni tarixiy ildizlarga (Popov, 1983) va fitoxoryonga bog‘liqligini (Popov, 1983; Taxtajyan, 1997) ko ‘rsatadi. Palearktika sinfida (167 tur) turlar sonining Turon sinfiga (141) nisbatan ko‘pligi floristik tarkibning shakllanishiga antropogen omillarning yuqori ta’siridan yana bir bor dalolat beradi.

Janubi-G‘arbiy Qizilqum florasining geografik tahlilida turlarning geografik elementlariga e’tibor qaratildi. Olib borilgan tadqiqotlarning muhim nazariy jihatlaridan biri shundaki, ilk bor Qizilqum hududida tor arealga ega bo‘lgan endem turlar o‘rnini ko‘rsatish bo‘lsa, boshqa tomondan tadqiqot hududining o‘ziga xosligi aynan Eron-Turon elementlarining ustunligini va shuningdek, flora tarkibida keng tarqalish diapozoniga ega bo‘lgan turlarning o‘rni yuqori ekanligini asoslash bo‘lgan. Floraning geografik elementlar bo‘yicha tahlil natijalariga ko‘ra quyidagi to‘rt guruhga ajratdik: mahalliy, Eron-Turon, Qadimiyo‘rtayerdengizi va keng tarqalgan turlar (1-rasm).




**1-rasm.** Janubi-G‘arbiy Qizilqum florasining asosiy geografik guruhlari

Birinchi guruh 30 turni (3.77%) tashkil qiladi. Mahalliy endemlar qumli cho‘llar va qoldiq tog‘lar bilan chegaralangan. Ayrim turlar juda tor areallari bilan ajralib turadi (Tolmachev, 1974). Turlarning soni bo‘yicha *Astragalus* turkumi Kuldjuktau endemiklari *A. remanens*, *A. adylovii* va *A. kuldzhuktauense* bilan ustunlik qiladi (Xasanov va boshqalar, 2011).

Tadqiqot hududi florasini deyarli yarmini Eron-Turon turlari (348 tur; 43.77%) tashkil qiladi. Turon chegaralaridan chiqmaydigan turlar floraning 11,95% ni tashkil qiladi va endemizm fraktsiyasida markaziy o‘rinlardan birini egallaydi. Bu yerda *Calligonum matteianum, C. paletzkianum, Astragalus chiwensis, A. ammotrophus, A. petunnikovii, A. turbinatus* va boshqa turlarni qayd etish zarur.

Turlarning 30% dan ortig‘i keng tarqalgan turlar guruhiga mansub bo‘lib (257 tur; 32,33%), bular asosan Palearktika, Golarktika va Pluregional sinflarining vakillari hisoblanadi. Boshqa floralar bilan qiyosiy tahlil natijalari ushbu guruhning tadqiqot hududi florasida muhim ishtirokini ko‘rsatdi. Masalan, Xorasan-Kopetdog‘ florasida 11.40% (Memariani & al., 2016), Rossiya Kavkazi kserofit florasida 7.20% (Magomedova i dr., 2017), Cherek Bezengi daryo havzasi florasi tarkibida 19.43% (Portenier, 1993) tashkil qiladi.

Tadqiqot hududida geografik tarqalishi keng bo‘lgan turlar sonining ortib borayotganligini turli fondlarda saqlanayotgan tarixiy gerbariylar (1900-2005 y.) va dala ishlari davomida tadqiqotchi tomonidan bevosita terilgan gerbariy namunalarining o‘zaro qiyosiy tahlilida ko‘rish mumkin (5-jadval).

**5-jadval**

Gerbariy kolleksiyalari asosida turlar sonining geografik elementlar bo‘yicha nisbati

| | **Muallif yig‘malari** | **Tarixiy yig‘malari** |
|---|---|---|
| **Mahalliy turlar** | 20 – 3.42% | 13 – 3.48% |
| **Eron-Turon turlari** | 245 – 41.95% | 181 – 48.40% |
| **Qadimiyo‘rtayerdengizi turlari** | 114 – 19.52% | 80 – 21.39% |
| **Keng tarqalgan turlar** | 205 – 35.10% | 99 – 26.47% |

Taqqoslanayotgan har ikki davrda ham Eron-Turon guruhiga mansub turlarning ustunligi aniq ifodalangan. Biroq, keng tarqalgan turlar guruhida sezilarli o'sish kuzatilmoqda va bu holat so‘ngi yillarda tabiiy floraga antropogen ta’sirlarning ortib borayotganligini yaqqol misoli sifatida qarash mumkin.

Beshinchi bo‘limda floraning biomorfologik tahlili yoritilgan. Janubi-G‘arbiy Qizilqum florasida hayotiy shakllar quyidagicha taqsimlangan: daraxtlar – 10 tur (1.26%), butalar – 55 (6.92%), butachalar – 6 (0.76%), yarimbutalar – 28 (3.52%), yarimbutachalar – 16 (2.01%), ko‘p yilliklar – 252 (31.70%), ikki yilliklar – 16 (2.01%) va bir yilliklar – 412 tur (51.82%). Hayotiy shakllar spektrida o‘t o‘simliklarining ustunlik qilishi ayniqsa, bir yillik turlarning yaqqol yetakchiligi

namoyon bo‘ldi. Bir yillik turlarning yetakchi oilalar spektri, O‘rta Osiyo florasi uchun L.Ye. Markova (1966) tomonidan tuzilgan oilalar spektriga muvofiq keldi. Bunda turlar soni jihatdan Amaranthaceae oilasi yetakchilik qilib, Janubi-G‘arbiy Qizilqum florasining 76.15% (O‘rta Osiyo florasida 76,63%) ni tashkil qildi.

Floradagi bir yillik avtoxton va alloxton elementlarning o‘zaro nisbati yaqin ko‘rsatkichni namoyon qildi. Masalan, Eron-Turon guruhi 162 tur bir yilliklarni tashkil etsa (jami bir yilliklarning 39.32%), keng arealli turlar guruhida bir yilliklar 149 turdan (36.16%) iborat. Birinchi guruhi tarkibida Eron-O‘rta Osiyo (53 tur), Eron-Turon (36), Turon (35) va O‘rta Osiyo (24) areal tiplari yetakchilik qildi. Ularga mansub bo‘lgan bir yilliklar tadqiqot hududi florasining tabiiy xususiyatlarini aks ettirdi. Ikkinchi guruhda 34 turga ega kosmopolitlar ustunlik qiladi, undan keyin Palearktika (28) va Golarktika (23) areal tiplari turadi hamda floraning boshqa floralar bilan aloqasini tasdiqlaydi.

Bobning oltinchi bo‘limi turlarning ekologik tahliliga bag‘ishlanadi. Tahlil natijalari 6-jadvalda keltirilgan.

**6-jadval**

Janubi-G‘arbiy Qizilqum florasining ekologik guruhlarining tarqalishi

| Ekologik guruhlar | Turlar soni | Umumiy floradan % hisobida |
|---|---|---|
| Psammofit | 312 | 39.25 |
| Gipsofit | 110 | 13.84 |
| Galofit | 186 | 23.40 |
| Petrofit | 170 | 21.38 |
| Potamofit | 81 | 10.19 |
| Begona o‘tlar | 266 | 33.46 |
| Suv o‘simliklari | 14 | 1.76 |

Ekologik guruhlar orasida psammofitlar 312 tur (39.25%) bilan yetakchilik qiladi. Ushbu guruhga kiruvchi turlar o‘rganilayotgan hudud florasining tipik xususiyatlarini ko‘rsatib beradi. Ye.P. Korovin (1961) O‘rta Osiyo uchun 350 turdan ortiq psammofitlarni keltiradi va endemizmning yuqori darajasini qayd etgan (198 tur; 56%). Tadqiqot hududida O‘rta Osiyo qumli cho‘llarining bir qator endemlari, xususan *Cithareloma lehmannii, Matthiola bucharica, Chartoloma platycarpum, Octoceras lehmannianum, Eremosparton flaccidum, Smirnovia turkestana* va boshqa turlar keng tarqalgan. Bu borada Turon provinsiyasining eng xarakterli turkumlaridan biri *Calligonum* turkumni alohida qayd etish lozim. O‘rganilayotgan florada 15 tur qayd qilingan. Asteraceae oilasidan bu kabi e’tiborga loyiq bo‘lgan turlarga *Cousinia annua* (Xasanov va boshq., 2010), *Artemisia eriocarpa* (Korovin, 1961) va boshqalar kiradi. Ye.P. Korovin (1961) fikricha Paleogen florasiga xos *Ammodendron, Ammothamnus, Eremosparton, Smirnovia, Calligonum* turkumlari vakillarining xarakterli xususiyatlari ularning

qumli muhit bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Bu keltirilgan jihatlar avtoxton floraning belgilariga muvofiq keladi.

A.I. Malsev (1962) fikricha tabiiy o‘simlik jamoalarining maydonlari antropogen ta’sirlar natijasida buzilishi ushbu turdagi o‘simlik jamoalariga xos bo‘lmagan begona o‘simliklarni shakllantiradi. Janubi-G‘arbiy Qizilqumda shunday hududlar mavjud bo‘lib, unda 266 tur (33.46%) begona o‘t uchraydi. Ular antropogen ta’sirlar natijasida ekinlar orasi, partov yerlar, ruderal maydonlar, yo‘l va ariq bo‘ylarida ikkilamchi jamoalarni hosil qilgan (Esanov, 2019).

Begona o‘tlarning geografik tarqalishi birinchi navbatda iqlimiy, edafik va biologik omillar bilan belgilanadi. Shunga bog‘liq tarzda  har bir tabiiy-geografik mintaqa begona o‘tlarning o‘ziga xos tur tarkibiga ega (Misnik, 2013). Muhit sharoitlarini antropogen omillar ta’sirida o‘zgarganlik darajasini ortishi begona o‘tlarning floristik va fitotsenotik faolligini ortishiga sabab bo‘ladi. Shunga ko‘ra, o‘rganilayotgan flora tarkibidagi begona o‘tlar boshqa cho‘l floralariga, masalan Shimoli-G‘arbiy Qizilqumga (21,64%) nisbatan yuqoriroq (33.46%) ko‘rsatgichni namoyon qiladi.

Bobning yettinchi bo‘limi floraning qiyosiy tahliliga bag‘ishlangan. Qiyosiy tahlil qilish uchun Ustyurt platosi (Saribaev, 1994), Shimoli-G‘arbiy Qizilqum (Turemuratov, 1978) va Janubi-Sharqiy Qizilqum (Batoshov, 2016) florasi bo‘yicha nashr etilgan ma’lumotlardan foydalandik. Tahlil natijalariga ko‘ra, o‘rganilayotgan hudud florasi Shimoliy-G‘arbiy Qizilqum florasiga eng yaqin ekanligi aniqlandi, bu geografik jihatdan yaqinligi va boshqa floralarga nisbatan umumiy genezisidan dalolat beradi (Korovin, 1961). Janubi-G‘arbiy Qizilqum va solishtirilayotgan floralarning yetakchi turkumlar spektrining tahlili floralarning geografik va ekologik xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan o‘ziga xos xususiyatlarni namoyon qildi. Qiyosiy tahlil natijalari dissertatsiya matnida batafsil bayon etilgan.

Ustyurt platosi va Qizilqumning turli floralarining yetakchi turkumlar spektrlarining umumiy sonining ko‘rsatkichlari va farqlarini solishtirish bilan bir qatorda, o‘rganilayotgan hududning alohida qismlarining floristik tarkibi ham qiyosiy tahlil qilindi. Buning uchun Janubi-G‘arbiy Qizilqum florasining umumiy taksonomik tarkibi Buxoro vohasi, Qizilqum qo‘riqxonasi va Jayron pitomnigi floralarining alohida ro‘yxatlari bilan bilan solishtirildi. Geografik elementlar kesimida qiyosiy tahlil natijalari 7-jadvalda keltirilgan.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, Buxoro ixtisoslashgan Jayron pitomnigi florasining asosiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha Janubi-G‘arbiy Qizilqum uchun olingan natijalarga ko‘proq o‘xshashlikni namoyon qiladi. Mazkur ikki floraning tur tarkibi tabiiydan (mahalliy fraksiya turlarining ustunligi bilan) antropogenga (adventiv turlarning ustunligi bilan) o‘tish holatini aks ettirishi mumkin. Buxoro vohasi florasi antropogen bosimlar ta’sirida shakllangan bo‘lib, adventivlanish darajasi eng yuqori bo‘lgan flora sifatida baholanadi. Qiyoslanayotgan mahalliy floralar orasida Qizilqum qo‘riqxonasi florasida aborigen fraksiya yetakchilik qiladi.

